

1. Umumiy ma'lumotlar.

Konsalting xizmatlarini xarid qilishdan maqsad — “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJning ishlab chiqarish obyektlarida ISO 26000 (Ijtimoiy mas’uliyat bo‘yicha qo‘llanma), ISO 27001 (Axborot texnologiyalari. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Axborot xavfsizligini boshqarish tizimlari) va ISO 50001 (Energiya menejmenti tizimlari) xalqaro standartlariga muvofiq integratsiyalashgan menejment tizimini ishlab chiqish va joriy etishdan iborat.

2. Ish turlari va baholash usuli:

ISO 26000, ISO 27001 va ISO 50001 xalqaro standartlari talablariga muvofiq integratsiyalashgan menejment tizimini ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha konsalting xizmatlari ko‘rsatiladi.

Tanlov takliflarini baholash ushbu hujjatning 6-bandida ko‘rsatilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

3. Buyurtmachi ma'lumotlari.

Buyurtmachi: “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ

Manzil: 111709, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Vohid Haydarov ko‘chasi, 1-uy

Qo‘llanish sohasi: O‘zTMK — bu noyob yer minerallaridan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqaradigan yuqori texnologiyali majmua: texnologik metallar, yuqori tozalikdagi metallar, rangli metallar qotishmalari va boshqalar..

Xodimlar soni: 1 529

Ish smenalari soni: 4

Tuzilmalar:

- Buyurtmachi boshqaruvi;
- Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish zavodi;
- Ingichka boyitish fabrikasi;
- “UTMK CHEMICAL” MChJ (sulfat kislota ishlab chiqarish zavodi).

1-bosqich: Amaldagi tizimni diagnostika qilish va energiya auditi o‘tkazish.

• ISO 50001 (energiya menejmenti), ISO 27001 (axborot xavfsizligi) talablari va ISO 26000 (ijtimoiy mas’uliyat) tamoyillariga muvofiqlik bo‘yicha diagnostik audit o‘tkazish.

• Birlamchi energiya tahlili: joriy energiya iste’molini baholash, energiyadan foydalanishning muhim sohalarini (SEUs) aniqlash va asosiy chiziqni (Energy Baseline) aniqlash.

• Axborot aktivlarini inventarizatsiya qilish va korxonaning axborot xavfsizligi holatini baholash.

- Ijtimoiy faoliyat skriningi: xodimlar, mahalliy hamjamiyatlar bilan o‘zaro aloqalar va ISO 26000 doirasida ekologik ta’sirni tahlil qilish.

- Nomuvofiqliklar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ro‘yxati bilan hisobot tayyorlash.

- **2-bosqich: IMT hujjatlarini ishlab chiqish**

- IMT qo‘llanish doirasini, shu jumladan energiya menejmenti tizimi chegaralarini (sexlar, podstantsiyalar) va axborotni himoya qilish perimetrini belgilash.

- Ishchi guruhni shakllantirish va “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ faoliyati kontekstini aniqlash.

- **Asosiy samaradorlik parametrlarini ishlab chiqish:**

- energetik maqsadlar va energiya samaradorligi ko‘rsatkichlarini (EnPIs) belgilash;
- axborot xavfsizligi risklarini (tahdidlar va zaifliklar) baholash;
- ijtimoiy mas’uliyat sohasida manfaatdor tomonlar kutishlarini aniqlash.

- **IMT hujjatlarini ishlab chiqish:**

- yagona siyosat (energiya tejash, ma’lumotlarni himoya qilish, etika);
- axborot xavfsizligi bo‘yicha Qo‘llanilish to‘g‘risidagi bayonot (**SoA**);
- energiya tejamkor uskunalar va xizmatlarni xarid qilish reglamentlari;
- AX hodisalariga javob berish va kirishni boshqarish tartib-taomillari.

- **3 -bosqich: Joriy etish va xodimlarni o‘qitish**

- **Master-klasslar va treninglar:**

- **ISO 50001** bo‘yicha seminar: energiya iste’molini o‘lchash, verifikatsiya va monitoring usullari;

- **ISO 27001** bo‘yicha seminar: maxfiy axborot bilan ishlash qoidalari va ijtimoiy injiniringdan himoyalanih;

- **ISO 26000** bo‘yicha seminar: munosib mehnat va ekologik xavfsizlik tamoyillari.

- **Operatsion nazoratni joriy etish:** uskunalarining energiya tejamkor rejimlarda ishlash reglamentlarini va ma’lumotlarni himoya qilish protokollarini joriy etish.

- **IMT ichki auditlarini o‘tkazish:** IMT ichki auditlarini o‘tkazish: yangi jarayonlarning kombinat bo‘linmalarida qay darajada joriy etilganini tekshirish.

- **Ichki tekshiruvlar yakunlari bo‘yicha** tuzatish choralarini ishlab chiqish.

4 -bosqich: Sertifikatlashga tayyorgarlik

- **Natijadorlik bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish:** energetik ko'rsatkichlarning amalda yaxshilanganini (50001 bo'yicha) va axborotni himoya qilish choralari barqarorligini (27001 bo'yicha) tasdiqlash.

- **IMT faoliyati bo'yicha rahbariyat uchun tahliliy hisobot tayyorlash.**

- **Oldindan sertifikatlash auditori o'tkazish** (tashqi auditorlar tekshiruvini imitatsiya qilish).

- ISO 50001 va ISO 27001 bo'yicha sertifikatlashda, shuningdek ISO 26000 bo'yicha mustaqil baholashdan (verifikatsiya) o'tishda **konsalting hamrohligini ta'minlash.**

4. Konsalting kompaniyalari uchun tanlovda ishtirok etish talablari:

Konsalting kompaniyasini tanlash mezonlari:

4.1 ISO/IEC 27001:2013 bo'yicha xalqaro sertifikatlarga ega kamida 4 nafar maslahatchining mavjud bo'lishi. Tasdiqlovchi hujjatlar: sertifikatlar nusxalari. Hamkor jalb etilgan taqdirda – hamkor bilan rasmiy kelishuv tuzilganligi to'g'risidagi guvohnoma;

4.2 Hujjatlar bilan tasdiqlangan tajribaning mavjudligi - ISO/IEC 27001:2013 xalqaro standartini ishlab chiqish, joriy etish va sertifikatlashtirishga tayyorlash bo'yicha kamida 5 ta muvaffaqiyatli yakunlangan loyiha xalqaro tan olingan sertifikatlashtirish organining sertifikatlangan korxonalar sertifikatlari bilan tasdiqlanadi;

4.3 Hujjatlar bilan tasdiqlangan malakaga ega bo'lish - kompaniya/hamkorning ISO/IEC 27001 xalqaro standarti bo'yicha muvaffaqiyatli sertifikatlangan mijoz tashkilotlaridan kamida 2 ta fikr-mulohaza;

4.4 Certified Ethical Hacker sertifikatiga ega kamida 1 nafar mutaxassisning mavjudligi. Tasdiqlash: sertifikat nusxalari;

4.5 ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001 bo'yicha IRCA auditor sertifikatiga ega kamida 1 nafar mutaxassis mavjudligi. **Tasdiq: sertifikatlar, tekshirish uchun xalqaro tashkilotning onlayn sahifasiga havola yoki ushbu sahifaning skrinshoti;**

4.6 Konsalting kompaniyasida ISO 9001, ISO 50001, ISO 27001, ISO 37001 tizimlari bo'yicha xalqaro sertifikatlarning mavjudligi - xalqaro, shuningdek mahalliy akkreditatsiyaga ega bo'lgan sertifikatlash organi tomonidan, **sertifikatning amal qilishini IAF rasmiy veb-saytida tekshirish imkoniyati bilan: <https://www.iafcertsearch.org/>;**

4.7 RUzda litsenziyalangan o'quv kompaniyasida ISO 50001, ISO 27001, ISO 45001 bo'yicha xalqaro kurslarda o'qiganligi haqida xalqaro sertifikatlarga ega kamida 1 nafar konsultant mavjudligi. **Tasdiqlovchi hujjatlar: o'qish sertifikatlari nusxalari. O'quv kompaniyasi maqomini tasdiqlash: license.gov.uz/registry saytidagi treninglar ro'yxatiga havola/skrinshot;**

4.8 O'zbekiston Standartlar Institutida o'tkazilgan texnik tartibga solish kursi bo'yicha o'qiganlik sertifikatiga ega kamida 1 nafar shtatdagi mutaxassis mavjudligi. **Tasdiq:** O'zbekiston Standartlar Instituti tomonidan berilgan sertifikat, Mymehnat'dan mehnat ko'chirmasi;

4.9 ISO 50001 standarti bo'yicha tashqi audit o'tkazish tajribasiga ega kamida 1 nafar shtatdagi mutaxassis mavjudligi. **Tasdiq: xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan sertifikatlashtirish organining tasdiqlov xati;**

4.10 Tashkilotning firma blankasida korrupsiyaga qarshi qonunchilikka rioya etilishi to'g'risida kafolat xati;

4.11 Soliq va yig'imlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud emasligi haqida soliq bazasidan ma'lumotnoma;

5. Xizmatlar ko'rsatish muddati

_____ 2026 yil.

6. Baholash

6.1. Texnik taklif quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

№	Talablar nomi	Baholash	og'irlik
1.	ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001 bo'yicha IRCA auditor sertifikatiga ega kamida 1 mutaxassis mavjudligi. Tasdiqlovchi hujjatlar: sertifikatlar, tasdiqlash uchun xalqaro tashkilotning onlayn sahifasiga havola yoki ushbu sahifaning skrinshoti (tekshirilishi mumkin).	Tasdiq taqdim etilgan – 10 баллов Taqdim etilmagan - 0 баллов	10
2	ISO/IEC 27001:2013 bo'yicha xalqaro sertifikatlariga ega kamida 4 nafar konsultant mavjudligi. Подтверждение: копии сертификатов/ В случае привлечения партнёра – свидетельство о заключении официального соглашения с партнёром	Tasdiq taqdim etilgan – 5 баллов Taqdim etilmagan - 0 баллов	5
3	Certified Ethical Hacker sertifikatiga ega kamida 1 mutaxassis mavjudligi.	Tasdiq taqdim etilgan – 10 баллов Taqdim etilmagan - 0 баллов	10
4	ISO/IEC 27001:2013 xalqaro standarti bo'yicha ishlab chiqish, joriy etish va sertifikatsiyaga tayyorlash bo'yicha kamida 5 ta muvaffaqiyatli yakunlangan loyihadan iborat hujjatlar bilan tasdiqlangan tajribaga ega bo'lish talab etiladi. Bu tajriba xalqaro miqyosda tan olingan Sertifikatlashtirish organi tomonidan korxonalariga berilgan sertifikatlar bilan tasdiqlanishi kerak.	Tasdiq taqdim etilgan – 5 баллов Taqdim etilmagan - 0 баллов	10
5	ISO/IEC 27001 xalqaro standarti bo'yicha muvaffaqiyatli sertifikatlangan mijoz tashkilotlardan olingan kamida 2	Tasdiq taqdim etilgan – 5 баллов Taqdim etilmagan - 0 баллов	5

	ta tavsiyanoma orqali tasdiqlangan vakolatlilikning mavjudligi.		
6.	Konsalting kompaniyasida ISO: 9001, 50001, 27001, 37001 tizimlari bo'yicha xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan xalqaro sertifikatlashtirish organining xalqaro sertifikatlari mavjudligi.	5 tadan ortiq sertifikat taqdim etilsa — 10 ball 5 tadan kam sertifikat — 5 ball Taqdim etilmagan — 0 ball.	10
7.	RUzdagi litsenziyalangan o'quv kompaniyasida ISO 50001, ISO 27001, ISO 45001 bo'yicha o'qigan kamida 1 konsultant mavjudligi Tasdiqlovchi hujjatlar: O'qitish sertifikatlari nusxalari. Trening kompaniyasi maqomini tasdiqlash: https://license.gov.uz/registry saytidan o'tkaziladigan treninglar ro'yxati uchun havola/skrinshot taqdim etish.	To'liq tasdiq taqdim etilgan — 10 ball Qisman taqdim etilgan — 5 ball Taqdim etilmagan — 0 ball	10
8.	O'zbekiston Standartlar Institutida texnik tartibga solish kursi bo'yicha sertifikatga ega kamida 1 shtat mutaxassisi mavjudligi Tasdiqlash: O'zbekiston Standart instituti tomonidan berilgan sertifikat, Mymehnat bilan mehnat shartnomasi	Tasdiq taqdim etilgan – 5 баллов Taqdim etilmagan - 0 баллов	5
9.	O'zbekiston Standartlar Institutida texnik tartibga solish kursi bo'yicha o'qigan kamida 1 shtat xodimi mavjudligi	Xodim taqdim etilgan — 5 ball Taqdim etilmagan — 0 ball	5
10.	Korrupsiyaga qarshi qonunchilikka rioya etish bo'yicha firma blankasidagi kafolat xati.	Xat talabga muvofiq taqdim etilgan — 5 ball Xat taqdim etilmagan yoki talabga muvofiq emas — 0 ball.	5
11.	Soliq va yig'imlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik yo'qligi haqida ma'lumotnoma.	Amaldagi ma'lumotnoma taqdim etilgan — 5 ball Ma'lumotnoma taqdim etilmagan yoki muddati o'tgan — 0 ball	5

Maksimal mumkin bo'lgan ball – 85

Minimal o'tish bali – 40

6.2. Takliflarning narx qismi bahosi.

Baholash
Baholash davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik rejimda amalga oshiriladi

Takliflardagi texnik (T) va moliyaviy (R) ko'rsatkichlar uchun belgilangan ulushlar:

T = 70%, R = 30%

7. Boshqa shartlar

- Ijrochi tugatish jarayonida bo'lmashligi yoki qonunchilikda belgilangan tartibda bankrot deb topilmagan bo'lishi kerak.

- Ariza topshirish vaqtida Ijrochining yoki uning tomonidan jalb qilingan konsultantlarning faoliyati to'xtatib qo'yilmagan bo'lishi lozim.

KELISHILDI:

ESG departamenti direktori



S. Murodov

Raqamli texnologiyalar boshqarmasi
boshlig'i



I. Ujaxov

ISHLAB CHIQILDI:

Xalqaro standartlarni joriy
etish bo'yicha mutaxassis



T. Turaboyev